



“Yangi O‘zbekistonda ayollarning ilm-fan taraqqiyoti va innovatsion rivojlanish jarayonidagi o‘rni” mavzusidagi respublika respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari



BUXORO-2024

2-SHO'BA: O'ZBEKISTONDA AYOLLARNING IJTIMOIIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUHIM YO'NALISHLARI	
<i>SHAXNOZ XIKMATOVNA SAMIYEVA</i> O'ZBEKISTONDA AYOLLARNING IJTIMOIIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUHIM YO'NALISHLARI	49
<i>XADIYEVA GULBAHOR DJUMAYEVNA</i> YURT TARAQQIYOTIDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIIY-SIYOSIY ROLI.	53
<i>AMONOVA NARGIZA MUXTAROVNA</i> YANGI O'ZBEKISTONDA OLIMA AYOLLARGA JAMIYATDAGI IMKONIYATLAR.	57
3-SHO'BA YANGI O'ZBEKISTON DAVLAT BOSHQARUVIDA AYOLLARNING O'RNI	
<i>XUSEYNOVA ABIQA AMANOVNA</i> YANGI O'ZBEKISTONDA GENDEP TENGLIKNI TA'MINLASH BORASIDAGI ISLOXOTLAR HAQIDA	62
<i>ARTIQOVA HAFIZA TO'YMURODOVNA</i> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING ILM-FAN TARAQQIYOTI VA INNOVATSION RIVOJLANISH JARAYONIDAGI O'RNI	67
<i>SAMIYEVA SHAXNOZ XIKMATOVNA, SHODMONOVA MIJGONA SALIMOVNA</i> O'ZBEK AYOLLARINING IMIDJINI YARATISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	72
<i>SH.SH.NIZOMOVA</i> YANGI O'ZBEKISTON DAVLAT BOSHQARUVIDA AYOLLARNING O'RNI	76
<i>BEKHAZAROVA SAIDA SAFIYULLAEVNA</i> РОЛЬ УЧЕНЫХ В ПРИВЛЕЧЕНИИ МОЛОДЕЖИ В НАУКУ	79
<i>RUZIYEVA SHOXIDA FATILLOYEVNA</i> GENDER BOSHQARUVDA AKADEMIK MOBILLIKNING ZAMONAVIY YO 'NALISHLARI	83
<i>M.B. SHARIPOVA</i> AYOL — JAMIYAT GULTOJI, BORLIQ KO'ZGUSI, MILLAT TARBIYACHISI	88
<i>NIYOZOVA SITORA DAVRONOVNA</i> O'ZBEK AYOLI-O'TMISH NAFOSAT, KELAJAK RAMZI	92

Innovatsion ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi universitetlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha **“Ta'lim” ustuvor milliy loyihasi (2006-2008)**;

2009-2013 yillarga mo'ljallangan "Innovatsion Rossiya uchun ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar" Federal maqsadli dasturi

Akademik mobillikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda institutsional darajada ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Talabalar va o'qituvchilarning akademik harakatchanligi universitetlarning o'quv va ilmiy faoliyatining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Akademik harakatchanlikning eng keng tarqalgan shakllariga qo'shma dasturlar, ikki (uchlik) daraja dasturlari kiradi va ikki tomonlama aspirantura dasturlarini amalga oshirishga misollar mavjud. Harakatlanishning nisbatan yangi shakllari bilan bir qatorda klassik shakllar ham faol rivojlanmoqda (stajirovkalar, seminar va konferensiyalarda ishtirok etish, malaka oshirish). Akademik harakatchanlikni tashkil etish masalalari oliy o'quv yurtlarining nizom hujjatlari va rivojlanish dasturlarida (nizom, missiya, rivojlanish strategiyasi (kontsepsiyasi)) o'z aksini topgan.

Akademik mobillik dasturlarini ishlab chiqishning muhim sharti talabalar, o'qituvchilar va ta'lim muassasalarining akademik harakatchanlik dasturlarida ishtirok etishini ta'minlaydigan tashkiliy mexanizmlarni shakllantirish, talabalar va o'qituvchilarining ichki va xalqaro harakatchanligi ko'lamini oshirish va sifatini oshirishdir. , bu uning mavjud infratuzilmasini qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshirish bilan bevosita bog'liq. Universitetlarda akademik harakatchanlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha eng rivojlangan infratuzilma yaratilgan bo'lib, u birinchi navbatda hamkorlikni rivojlantirish va ta'limni xalqarolashtirish tamoyillarini amalga oshirishga yo'naltirilgan.

**AYOL — JAMIYAT GULTOJI, BORLIQ KO'ZGUSI, MILLAT
TARBIYACHISI**

M.B.Sharipova- Buxoro davlat universiteti

Sport faoliyati va pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi,

*«Oilada bir nafar qiz o‘qib, oliy ma’lumotga ega bo‘lsa, xonadondagi muhit
butunlay o‘zgaradi»*

Sh.Sh.Mirziyoyev

Bugungi kunda ham hukumatimiz tomonidan xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash, jamiyatda qadrini va qaddini ko‘tarish maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu xayrli ishlarning samarasini esa barcha opa-singillarimiz o‘z hayotlari, umr yo‘llari davomida his etishmoqda. Shu bilan birga ko‘rsatilayotgan mehr-muhabbatni yuksak baholab, barcha sohalarda o‘z bilim va salohiyatlarini ko‘rsatmoqda, jahon arenalarida davlatimiz bayrog‘ini yanada baland tutmoqda, yer yuzidagi eng mashhur, yirik kompaniyalarda mehnat qilib, o‘zbeklarning salohiyatini namoyish qilmoqda. Albatta, kelajagi buyuk, ertasi farovon bo‘lishini istagan xalq millat davomchilarini qay soha vakili bo‘lmasin ko‘ngli tinch, hayoti farovon bo‘lishi uchun harakat qiladi, munosib turmush kechirishlari uchun sharoit yaratadi.

Ming yillar davomida har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma’naviy barkamolligi ham ayollarga bo‘lgan munosabat bilan belgilangan. Ayolni e’zozlash, unga ehtirom ko‘rsatish Sharq xalqlariga, jumladan, o‘zbek xalqiga xos xususiyatdir. Maqolada Yangi O‘zbekistonda lider ayollar, ularga jamiyatda e’tibor qaratish hamda jamiyatimizda lider ayollar faoliyatini yanada keng rivojlantirish muammolari tahlil etilgan. Ayol nozik xilqat bo‘lishi bilan birga, bugun u mamlakatda o‘z mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularga daxldor ijtimoiy muammolarni hal etishda, qaysi soha bo‘lmasin faollikni qo‘ldan boy bermay, oilamiz ustunlari bilan qadam tashlamoqda.

Jamiyatda yangi ma’naviy makon yaratishda xotin-qizlarning faolligini qo‘llab-quvvatlash, farzand tarbiyasi, oila, xotin-qizlar ma’naviyatini yuksaltirishda jamoatchilikka, eng avvalo, yoshlarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsata oladigan obro‘-e’tiborli va katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan, faol va

tashabbuskor ayollarning sa'y-harakatlarini birlashtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining "Oqila ayollar" harakati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori jamiyatni yuksaltiruvchi kuch bo'lgan – ayol timsoliga yana bir e'toborning namunasidir.

Prezidentimiz Sh.Sh.Mirziyoyev ham "Bu hayotda nimaga, qanday yutuq va natijalarga erishgan bo'lsak, ularning barchasi munis va mehribon onalarimiz tufaylidir. Shuning uchun biz xotin-qizlarimiz oldida doimo qarzdorlik hissi bilan yashaymiz. Ularga har qancha mehr va e'tibor ko'rsatsak, arziydi" deb ta'kidladilar. Chunki ayol oilaning ustuni, jamiyatga esa barkamol avlodni yetkazib beruvchi muhtaram zotdir. Ayol qanchalik aqlli, bilimli bo'lsa, u tarbiyalagan farzandlar ham har tomonlama barkamol bo'lib o'sadi. Shundan kelib chiqib, ayollarning har bir harakati alohida e'tirof etilib, jamiyatda o'z o'rnini, namunali ishlari bilan o'rnak bo'layotgan xotin-qizlarimizga "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 02.04.2018 yildagi 257-son), "Ibratli oila"(O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 02.09.2023 yildagi 437-son), "Oliy ta'lim a'lochisi" hamda "O'rta maxsus va professional ta'lim a'lochisi"(O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 24.10.2022 yildagi 616-son), "O'zbekiston respublikasi veterinariya fidoyisi" va "O'zbekiston respublikasi chorvachilik fidokori" kabi yuksak e'tirof-ko'kak nishonlari ta'sis etildi.

Jamiyat taraqqiyoti esa mana shu munosabatlar to'kisligiga bevosita bog'liqdir. Shu bois, oilani himoya qilishga davlat siyosati darajasida e'tibor berilayotgan bir paytda xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish masalasini to'g'ri va ijobiy hal qilishda quyidagi masalalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

- xotin-qizlarga nisbatan barcha shakldagi kamsitish va zo'ravonlikka yo'l qo'ymaslik;

- jamiyatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish;

- ayol va erkakning mas'uliyati, o'zlarining oiladagi burchini to'liq his qilishi, o'zaro hurmati va oilaviy muammolarning yechimini bafurja hal qilishida imkoniyatlar yaratish;

- ayollarning huquqiy madaniyati va diniy savodxonligini oshirish; - mahalla fuqorolar yig'inida ota-onalarning mafkuraviy, pedagogik, psixologik bilim saviyasini oshirib borish;

- ayollarning ilmi bo'lish darajasini oshirishni ta'minlashda targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

- telekanallar orqali oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan xorij seriallarini ko'paytirgandan ko'ra, milliy mentalitetimizga hos oilaviy munosabatlarni aks ettiradigan dasturlar sonini ko'paytirish;

- mahalla fuqorolar yig'inida psixologik treninglar tashkil etish va unga aholini qiziqtirish. - qizlarga zamonaviy ta'lim-tarbiya berishga ko'maklashish;

- xotin-qizlar ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash;

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, oilalarda ma'naviy ahloqiy muhitni mustahkamlash va sog'lomlashtirish jamiyat va davlat rivojining muhim mezonidir.

Zero, o'zbek ayoli To'maris, Bibixonimlar izdoshi bo'lib, kelajakka avlodlarga munosib vorislarni tarbiyalab, jamiyatga irodasi kuchli, matonatli, har sohada iqtidorli farzandlarni tarbiyalash-bugun onaman deydigan har bir ayolning vazifasidir.